

Toshkent shahridagi Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti talabalari tomonidan **“Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar”** doirasida atoqli adib Aleksandr Faynberg haykali poyida tashkil etilgan tadbir yuzasidan

BAYONNOMASI

2026-yil 06-fevral

TXVU

2026-yil 06 fevral kuni Toshkent shahridagi “Adiblar xiyoboni”da Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti talabalari ishtirokida atoqli adib Aleksandr Faynberg hamda Abdulla Qodiriy haykali poyida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlari tashkil etildi. Tadbir yillik reja asosida amalga oshirildi.

Mazkur tadbirning asosiy maqsadi talaba-yoshlarni milliy adabiyotimiz, madaniyatimiz va tariximiz bilan yaqindan tanishtirish, ularni buyuk shoir va adiblarning hayoti, ijodi, falsafiy qarashlari hamda ma’naviy merosi bilan tanishtirishdan iborat edi.



Tadbir davomida talabalar adib Aleksandr Faynberg hamda Abdulla Qodiriy haykali poyida yig‘ilib, uning ijodiy merosi va adabiyotimiz rivojida o‘rni haqida ma’lumotlar olishdi. Shuningdek, adiblarning qisqa ma’rifiy nutqlar tinglandi, talaba-yoshlar she’riyatga bag‘ishlangan badiiy chiqishlarda ishtirok etdilar.

Tashrif davomida talabalarga tarixiy va madaniy ma’lumotlar berildi, ularning milliy qadriyatlarimizga hurmat va muhabbat hissi yanada kuchaytirildi. Talabalar tadbir yakunida esdalik uchun suratga tushdilar, shuningdek, adabiyot va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishga ilhom oldilar.

Tadbir yakunida ishtirokchilar o‘zaro fikr almashdilar, ma’naviy va madaniy merosimizni asrab-avaylash, uni yosh avlodga yetkazish borasidagi mas’uliyatni angladilar. Shu bilan birga, talaba-yoshlarning madaniy-ma’rifiy faolligi va adabiy qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmati oshirildi.





Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlash bo'yicha birinchi prorektor:

N.Kodirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova